



## MUAYYAN HUQUQDAN MAHRUM QILISH JAZOSI MAZMUNI VA UNING QO'LLANILISHI

**Kalbaeva Eldora Uzaqbaevna**

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

Yuridika fakulteti 3-bosqich talabasi

E-mail: eldorakalbaeva@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15581246>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-May 2025 yil

Ma'qullandi: 28-May 2025 yil

Nashr qilindi: 31-May 2025 yil

### KEY WORDS

aybdor, muayyan huquqdan mahrum qilish, jinoiy faoliyat, sudlangan shaxs, jinoyat qonuni.

### ABSTRACT

*Maqolada O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga muvofiq, jinoyat sodir etgan shaxslarga tayinlanadigan muayyan huquqdan mahrum qilish jazosining mazmuni, maqsadi va qo'llanilish tartibi o'rganiladi. Ushbu jazo turi jinoyatchining fuqarolik, kasbiy yoki siyosiy huquqlarini vaqtincha cheklash orqali jamoat xavfsizligini ta'minlashga xizmat qilishi ochib berilgan.*

Inson hayoti davomida jamiyatda muayyan ijtimoiy vazifani bajaradi - bu vazifaga kasb, ijtimoiy maqom yoki fuqarolik huquqlari orqali erishiladi. Jinoyat sodir etgan shaxs esa, o'z xatti-harakati bilan qonun talablarini buzishi bilan birga jamiyat ishonchini, axloq-odob me'yorlarini ham buzadi. Bu holatda, uni erkinlikdan mahrum etish emas, aksincha, uning vazifasi, maqomini vaqtincha cheklash orqali javobgarlikka tortish - zamonaviy huquqiy tizimlarda muhim harakatlardan biri hisoblanadi. Bunday jazo turlaridan biri sifatida O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida ko'rsatilgan - muayyan huquqdan mahrum qilish jazosini ko'rsatishimiz mumkin.

Muayyan huquqdan mahrum qilish jazosining o'ziga xos xususiyatlaridan biri - uning jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan "maqsadli" tarzda qo'llaniladi - ya'ni, jinoyatni sodir etgan shaxsni faoliyat, lavozim yoki kasb doirasi bilan bog'liq holda huquqdan cheklash orqali unga ijtimoiy-huquqiy ta'sir ko'rsatilib, uning yana shunday jinoyat sodir etishining oldini olishda qo'llaniladi. Bunda jazo sodir etilgan jinoyat shaxsning bevosita muayyan huquqi bilan bog'liq bo'lsagina qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 45-moddasiga muvofiq, muayyan huquqdan mahrum qilish sud tayinlagan muddat davomida aybdorning korxonalar, muassasalar yoki tashkilotlarda biron-bir lavozimni egallashi yoki biron-bir faoliyat bilan shug'ullanishini taqiqlashdan iboratdir [1].

Muayyan faoliyat turi bilan shug'ullanishni taqiqlash deganda, aybdorning doimiy ravishda shug'ullanadigan kasbiy kasbiy, shuningdek, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdan mahrum qilish tushuniladi. Sud tomonidan aybdorga faqat bitta (aniq) faoliyat turi bilan shug'ullanish taqiqlanadi.

Bunday taqiq esa faqat qonuniy faoliyat turlariga nisbatan amalga oshirilishi mumkin. Sud o'z hukmida shaxsni jinoiy faoliyatni amalga oshirish huquqidan mahrum qila olmaydi, chunki mazkur shaxs bu faoliyatni amalga oshirish huquqiga ega emas. Masalan, sudlangan shaxsga giyohvand moddalar, ularning analoglarini sotish bo'yicha faoliyatni amalga

oshirishni taqiqlashga yo'l qo'yish mumkin emas [2, 430].

Muayyan huquqdan mahrum qilish jazosining yana bir xususiyatlaridan biri – uning asosiy va qo'shimcha jazo sifatida tayinlanishi mumkinligidir. Agar u asosiy jazo tariqasida tayinlansa, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining tegishli moddasi sanksiyasida to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatiladi, qo'shimcha jazo tariqasida tayinlanganda esa, hukmning tavsif qismida ko'rsatiladi.

Jazo ijrosi mahkumning yashash joyidagi ichki ishlar organining probatsiya bo'limi tomonidan amalga oshiriladi. U qo'shimcha jazo sifatida tayinlanganda esa, uning ijrosi asosiy jazoni ijro etuvchi organ tomonidan amalga oshiriladi [3].

Uning asosiy va qo'shimcha jazo turi sifatida qo'llanilganda muddatlari ham bir-biridan farq qiladi. Ya'ni, muayyan huquqdan mahrum qilish asosiy jazo sifatida tayinlanganda uning muddati – bir yildan besh yilgacha, qo'shimcha jazo sifatida tayinlanganda – bir yildan uch yilgacha belgilanadi.

Muayyan huquqdan mahrum qilish aybdor jinoyat sodir etish vaqtida bunday huquqqa ega bo'lgan taqdirdagina qo'llaniladi. Agar u bu huquqqa jinoyat sodir etganidan keyin ega bo'lgan bo'lsa, sud bu jazo turini qo'llamaydi.

Agar sodir etilgan jinoyat o'zining xususiyatlariga ko'ra shaxsning egallab turgan lavozimi yoki uning faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lmasa, bu holda ushbu lavozimni egallash huquqidan yoki ushbu faoliyatni amalga oshirish huquqidan mahrum etilishi mumkin emas. Biroq, hukm chiqarilayotgan vaqtda sudlanuvchi jinoyat sodir etilishi bilan bog'liq bo'lgan lavozimni egallamaganligi yoki faoliyat turi bilan shug'ullanmaganligi holati qo'shimcha jazo qo'llash uchun to'siq bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi jinoyat qonunchiligiga muvofiq, muayyan huquqdan cheklash jazosini qo'llashda bunday faoliyat turi aybdorning asosiy moddiy ta'minoti, ya'ni tirikchilik manbai ekanligiga e'tibor qaratiladi. Agar faoliyat aybdorning asosiy moddiy ta'minoti manbai bo'lsa yoki sud ko'rib chiqayotgan davlat majburluv chorasini muayyan shaxslarning yagona kasbiy faoliyati bo'lgan faoliyat turlari egalari bo'lgan shaxslarga tayinlashning maqsadga muvofiqligi to'g'risidagi masalani muhokama qilishi lozim bo'ladi. Masalan, muayyan shaxslar uchun davlat tomonidan majburiy ravishda litsenziyalangan yoki ruxsat etilgan kasbiy faoliyat - tadbirkorlik, ovchilik, transport vositalarini boshqarish kabi - ularning yagona daromad manbai bo'lishi mumkin. Shu sababli, sud tomonidan ushbu jazoning maqsadga muvofiqligi alohida baholanishi zarur bo'ladi.

Jinoyatni sodir etganligi uchun muayyan huquqdan mahrum qilish, muddatli xususiyatga ega bo'lib, u jinoyat qonunida belgilangan doirada tayinlanadi. Muayyan huquqdan mahrum qilishning muddati belgilanmagan taqdirda, bu masala Jinoyat Kodeksining Umumiy qismi qonun-qoidalari asosida hal etiladi. Sud tomonidan jazo qonunda ko'rsatilgan muddatlar (asosiy va qo'shimcha jazo uchun) doirasida tayinlanishi kerak. Chunki, jazoning belgilangan muddati ko'rsatilmaganligi jinoyat qonunining noto'g'ri qo'llanilishi sifatida qaraladi.

Muayyan huquqdan mahrum qilish, birinchi navbatda, jinoiy faoliyatni davom ettirishning oldini olish bilan birga, jazoning ogohlantirish funksiyasini amalga oshirishga qaratilgan. Muayyan huquqdan mahrum qilish jazosi ozodlikdan mahrum qilish, intizomiy qismga jo'natish jazosiga qo'shimcha jazo tariqasida tayinlangan bo'lsa, asosiy jazoning butun muddatiga va undan keyin hukmda belgilangan muddatga qadar davom etadi. Boshqa asosiy jazolarga qo'shimcha jazo tariqasida tayinlanganda, uning muddati hukm qonuniy kuchga

kirgan paytdan boshlab hisoblanadi. Shaxs shartli hukm qilinganda, muddatning o'tishi hukm chiqarilgan kundan e'tiboran hisoblanadi.

Agar shaxsga asosiy jazo sifatida ozodlikdan mahrum qilish, intizomiy bo'linmaga jo'natish yoki mehnat bilan tuzatish ishlari jazolaridan biri tayinlangan bo'lsa, hukm qonuniy kuchga kirgan kundan boshlab hisoblanadi.

Dunyoning bir qator rivojlangan mamlakatlarida ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolarning biri sifatida keng qo'llaniladi. Masalan, Germaniyada ushbu jazo turi asosan korrupsiyaviy jinoyatlar, davlat mulkini o'zlashtirish va boshqa mansabdor shaxslarga nisbatan keng qo'llaniladi. shaxsni muayyan kasbiy faoliyatdan cheklash orqali jinoyatning oldini olishga alohida e'tibor qaratiladi. Agar bunday jinoyatlarni mansabdor shaxslar sodir etsa, ular kelgusida davlat lavozimlarida ishlash huquqidan mahrum etiladi. Bu choralar davlat sektorida korrupsiya bilan bog'liq salbiy holatlarni kamaytirish va davlat xizmatchilariga ishonchni oshirishga qaratilgan [4].

AQShda esa jinoyat sodir etgan shaxslarni muayyan huquqlardan mahrum qilish - qurol saqlash huquqi, saylovlarda ovoz berish kabi bir qator huquqlardan mahrum qilishdan iborat cheklovlarni o'z ichiga oladi [5].

Bir qator rivojlangan davlatlar jinoyat qonunchiligida jinoyat sodir etgan shaxslarga tayinlanadigan muayyan huquqdan cheklash jazosi bilan O'zbekiston jinoyat-huquqiy tizimi o'rtasida ayrim farqlar mavjud bo'lishi bilan birga ularning umumiy o'xshashliklarga ega bo'lishi mamlakatimizda jazo tizimining jahon standartlariga muvofiq takomillashtirilayotganligining yaqqol ifodasidir.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkin, muayyan huquqdan mahrum qilish jazosi jinoyat huquqida alohida o'rin tutadi. U shaxsni muayyan kasbiy yoki jamoat faoliyatidan cheklash orqali unga ijtimoiy-huquqiy ta'sir o'tkazishni nazarda tutib, zamonaviy huquqiy tizimlarda ozodlikdan mahrum etishga muqobil bo'lgan samarali choradir. Jazo chorasi nafaqat jazolash, balki profilaktik ahamiyatga ham ega bo'lib, jinoyatchining kelgusi xatti-harakatlariga ta'sir o'tkazadi. Shu bois, muayyan huquqdan mahrum qilish jazosi jinoyat-huquqiy tizimning muhim qismi sifatida xalqaro tajribada o'z o'rniga ega bo'lib bormoqda.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодекси <https://www.lex.uz/acts/111453>
2. М.Х. Рустамбаев. Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексига шархлар. Умумий қисм/М.Х.Рустамбаев – Тошкент: "Yuridik adabiyotlar publish", 2021. – 430 б.
3. Ўзбекистон Республикаси Жиноят-ижроия кодекси <https://lex.uz/acts/163629>
4. Germany. Strafgesetzbuch (StGB) – German Criminal Code. Rejim kirish turi: <https://www.gesetze-im-internet.de/stgb/> (murojaat qilingan sana: 14.05.2025).
5. United States Code. Title 18 – Crimes and Criminal Procedure. Rejim kirish turi: <https://www.law.cornell.edu/uscode/text/18> (murojaat qilingan sana: 14.05.2025).